

## **BOSHLANG'ICH SINFDADA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI**

*Samarqand viloyati Jomboy tumani 37-maktab Boshlag'ich ta'lim fani o'qituvchisi*

***Umarova Nasiba Umurzakovna***

*Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasi adabiy ta'lim metodikasi sifatida ish ko'rishi lozimligi, boshlang'ich sinfdada o'qish adabiyot o'qitish sistematik kursiga tayyorlovchi predmet sifatida o'qitilishi xususida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** adabiy ta'lim, adabiy tahlil va talqin, didaktik qoida, deduksiya, induksiya, metodik sistema, pedagogik texnologiya*

Bilamizki, badiiy asarlarni o'qish bilan bog'liq holda shaxsni estetik tarbiyalash, ya'ni bilim berish, tarbiyalash va e'tiqodlarini shakllantirish; ya'ni maktabda o'qitiladigan predmetlar kabi bolalar adabiyoti namunalarini san'at asari sifatida o'rganish vazifalari o'qish darslariga yuklatiladi. XX asrning 2-yarmida boshlang'ich sinf metodikasida badiiy asarga estetik jihatdan yondashib san'at asari sifatida o'rganish g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa, psixologik izlanishlar kichik yoshdagi o'quvchilarning potensial qobiliyati adabiyot dunyosini tanishtirishga boshqacha yondashish kerakligini taqozo etmoqda. Jumladan, N.N.Svetlovskaya o'quvchining mustaqil o'qish nazariyasini ishlab chiqqan bo'lsa, Ye.A.Adamov, M.S.Vasileva, V.G.Goretskiy, M.I.Omorokov, T.G.Ramzaeva va boshqalar badiiy asarning shakl va mazmunini tahlil qilish, L.A.Gorbushina, O. V.Kubasova, L.N.Mali, L.V.Nefedova va boshqalar ishlab chiqqan metodikada o'quvchilarning ijodiy ishlariga, ayrimlar esa o'qish texnikasini rivojlantirish zarurligini qayd etdilar. Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim metodikasi metodik fan sifatida shakllanish bosqichlarini bosib otdi. Har bir fan o'zining o'rganish ob'ekti va predmetiga ega bo'lganidek, hozirgi kunda boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasi adabiy ta'lim metodikasi sifatida ish ko'rishi lozimligi g'oyasi ilgari surilmoqda. Haqiqatan ham, adabiyot o'qitish sistematik kursiga tayyorlovchi predmet

sifatida o`qish metodikasi bolalar adabiyoti namunalari asosida o`z maqsad va vazifalarini belgilaydi. Shundan kelib chiqqan holda boshlang`ich sinfda o`qish darslarining o`rganish ob`yekti – o`quvchilarning adabiy ta`limni egallash jarayoni deb belgilanishi maqsadga muvofiqdir. —Adabiy ta`lim atamasi o`zaro bog`liq bo`lgan uch jarayonni o`z ichiga oladi: 1) adabiy-badiiy asarlar bilan aloqa jarayonida shaxs tarbiyasi; 2) o`qitish, ya`ni bolalar adabiyotini maktab fanlaridan biri sifatida o`qitish; 3) shaxsning o`zini rivojlantirishini shakllantirish. V.V.Golubkov tomonidan ishlab chiqilgan —Nima uchun o`rgatish kerak? (badiiy asarni o`rgatish maqsadi), —Nimani o`rgatish kerak? (adabiy ta`limning mazmuni), —Qanday o`rgatish kerak? (talabalarning – bo`lajak o`qituvchining maqsadi, mazmuni, mos metod va usullar, vositalar), —Nima uchun shunday o`qitish kerak, boshqacha emas? (tanlangan yo`lning ilmiy asoslanganligi) adabiy ta`lim metodologiyasiga asoslanilgan. Hozirgi kun metodikasida bu masalaga o`quvchi nuqtai nazaridan qaralmoqda. Unga ko`ra o`quvchi tomonidan tan olingan o`quv maqsadi sifatida quyidagilar belgilangan:

1) —Nimani o`rganyapman? (adabiy ta`limning o`quvchi shaxsi tomonidan qabul qilingan mazmuni);

2) —Qanday o`qiyman? (bola o`zlashtirishning qaysi usullaridan foydalanishi);

3) —Nega men shu usulda o`rganyapman, boshqa usulda emas? (o`rganayotgan usullaridan qaysi birining samarali ekanini anglashi) Metodologiyaning fan sifatida rivojlanishi bir paradigmaning boshqasi bilan bog`liqligiga asoslanib o`qitish ko`zga tashlanadi. Bunda —Nima uchun o`qituvchi dars beradi?, —Nima uchun bola o`qiydi? savollarga javoblar mos tushadi. 1-sinf o`quvchisi o`zidagi bo`shliqlarni to`ldirish, so`z san`atini o`zlashtirish maqsadlarini o`z oldiga qo`ya olmaydi. O`qituvchi bu maqsadlarni o`rtaga tashlab, o`quvchilarni maqsad sari yo`naltiradi. Siz nima o`qiyapsiz? O`ylang, nima uchun bu asarni o`qiyapmiz? Bu asarni hozirgi o`qish va tahlil qilish usulimiz bilan yaxshi o`zlashtira oldingizmi? Keyinchalik o`quvchi darslar davomida kitobxon bo`lish uchun nimalarni bilish kerakligini, yaxshi kitob kitobxonda turli xil kechinmalarni (qayg`urish, tshvishlanish) yuzaga keltirishini, fikrlashga undashini, o`zining pozitsiyasini tanlash imkonini berishini bilib boradi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi adabiy ta`limni o`qitishda maktab oldiga o`sib kelayotgan yosh avlodni yuz yillar oldindan insoniyat tarixi davomida yaratilgan va shu vaqtgacha to`ldirib kelingan madaniyatni egallash, bolani real hayotga tayyorlash, ongli ravishda kasb tanlashiga erishish, o`quvchilarni atrofdagi kishilar bilan madaniyatli muomala qilishga o`rgatish talabini qo`ymoqda. Buning uchun o`quvchilarning imkoniyatlarini va asosiy faoliyatlarini hisobga olgan holda o`qitishning har bir bosqichida maktab adabiy ta`limi tayanch maqsadlarni belgilab olish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To'ychiyeva Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O'quv metodik qo'llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 46-47 betlar.

2. М.П. Воюшина, С.А.Кислинская, Е.В. Лебедева. Методика обучения литературе в начальной школе. –М.: -Академия. – 2010.

3. Matchonov S., Shojalilov A., G`ulomova X. va b. O`qish kitobi. 4- sinf uchun darslik. –T.: Yangiyo`l poligraf servis. 2020.

4. Матчонов С. Адабиёт дарсларида таҳлил ва талқин уйғунлиги. Тил ва адабиёт та`limi. 2020. 7- сон.

5. Фуломова Х. Ўқувчиларнинг матн устида ишлаши.// Тил ва адабиёт таълими. 1994. №2-3.